



Sog'liqni saqlash  
vazirligi



Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



Andijon davlat  
tibbiyot instituti



+998-74-223 94-60



[www.adti.uz](http://www.adti.uz)



Yu.Atabekov 1-a uy

# “TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARIGA INNOVATSION YONDOSHUV”

RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI

# MATERIALLARI



29-mart  
2024  
ANDIJON





o‘tkir buzilishlari psixoemotsional buzilishlar natijasida surunkali tus oldi Surunkali insomniya rivojlangan bemorlarda jinsga bog‘liq bo‘lmagan holda surunkali charchoq sindromi, xavotir va depressiyaning kuchayishi, diqqat tarqoqligi, xotira pasayishi va hayot sifatining tushishi kabi holatlar rivojlandi.

## **MIOKARD INFARKTI KASALLIGIDA EKG BELGILARINING O‘ZGARISHI**

**Ahrorov Abdulaziz Azizjonovich**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi**

**Sobirova Dildora Ravshanovna**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasida dotsenti**

Miokard infarkti – YIK (yurak ishemik kasalliklari) kasalliklarining bir ko‘rinishi bo‘lib, yurak mushaklarining chegaralangan nekrozi hisoblanadi U yurak toj arteriyalarining tromb bilan bekilib qolishi yoki ularning o‘tkir siqilishi natijasida paydo bo‘ladi Keyingi yillarda miokard infarkti kasalligi tobora ko‘payib bormoqda Ayniqsa, 45-60 yoshdagi odamlar orasida kop uchramoqda Erkaklar ayollarga nisbatan miokard infarktiga ko‘p chalinadilar 40-50 yoshdagi erkaklar besh barobar ko‘p kasal bo‘ladilar Ayollar erkaklarga nisbatan 10-15 yil kech kasal bo‘ladilar 40 yoshga to‘lmagan kishilar orasida ham miokard infarktiga uchraganlar ko‘p Miokard infarkti asosan ateroskleroz, gipertaniya, qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarda ko‘p uchraydi Elektrokardiogramma (EKG) ma‘lumotlari miokard infarkti tashxisida juda muhim ahamiyatga ega, chunki EKG bilan tekshirish infarkt o‘rnini aniq belgilashga, miokardning nekroz bo‘lgan qismi chuqurligini, kengligini tasavvur qilishga imkon beradi Yurak muskullarining qisqarishi va biopatsiallari EKG yordamida aniqlanadi EKG da 5ta tish mavjud va ular lotin harflari bilan beligilanadi Ucha yirik tishlar ya‘ni P, R, T yuqoriga yo‘nalgan bo‘lib, musbat tishlar deyiladi Ikkita kichik tish Q, S lar esa pastga yo‘nalgan bo‘lib, manfiy tishlar deyiladi va ular izochiziqdan pastda joylashadi P tish chap va o‘ng bo‘lmachalar qisqargandagi potentsiallarining algebraik yig‘indisi hisoblanadi Uning davomiyligi 0,1 sek ga teng Q tish esa qorinchalarning qo‘zg‘alishi, qorinchalararo to‘siqning yurak uchi, o‘ng so‘rg‘ichsimon muskul va qorinchalar ichki yuzasining depolyarizatsiyasini belgilaydi Voltaji 0-0,3 mv ga teng R tish EKG da eng yuqori tish hisoblanib, yurak asosi va qorinchalar tashqi yuzasining qo‘zg‘alganligini bildiradi va uning voltaji 0,6-1,6 ga teng S tish qorinchalar miokardini qo‘zg‘alish to‘liq qamrab olganligini bildiradi Voltaji 0,25-0,14 ga teng T tish miokardning repolyarizatsiyasini ko‘rsatadi Bu tish EKG da eng ko‘p o‘zgaruvchi qism hisoblanadi va voltaji 0,25-0,6 mv ga teng QRS kompleksi esa qorinchalar miokardida qo‘zg‘alishlar qamrab olish tezligini ko‘rstadi va 0,06-0,1 sek davom etadi ST segmenti esa ikkala qorincha qo‘zg‘alganligi tufayli qorinchalar orasida potentsiallar farqi yo‘qligini bildiradi va izochiziqda yotadi Miokardning nekroz zonasi EKG ning QRS kompleksidagi o‘zgarishlar ko‘rinishida, shikastlanish zonasi - ST intervali siljishi, ishemiya zonasi T tishcha o‘zgarishlari ko‘rinishida ifodalanadi Miokard infarktida nekroz o‘choq bo‘lganda EKGda qorincha kompleksi o‘zgaradi Kasallik belgisi QS (0,04) paydo bo‘ladi, chuqurlashgan Q tishchasi ham miokard infarktining belgisidir Elektrokardiogrammadagi o‘zgarishga qarab, miokard infarktini 4 davrga ajratish mumkin Juda o‘tkir, o‘tkir, o‘rtacha o‘tkir, chandiqliq hosil bo‘lish davri Lekin bu davrlar klinik manzaraning kechishiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin



EKGda miokard infarktining juda o‘tkir davrida (2 soat davomida) 1-kuni ST segmentining o‘rta chiziqdan ko‘tarilib bir tomondan P tishchasi bilan qo‘shilib ketganini, ikkinchi tomondan T tishi bilan qo‘shilganini ko‘ramiz Bu shikastlanish davri hisoblanadi. O‘tkir davrda EKG da Q (QS) paydo bo‘ladi Bu esa nekroz o‘choq paydo bo‘lishidan dalolat beradi Ko‘tarilgan ST pastga tusha boshlaydi T tishi manfiy bo‘la boshlaydi Bir haftagacha davom etadi Ko‘rsatilgan ikki davrda EKGda monofazali egri chiziq hosil bo‘ladi Bu miokard infarktining o‘tkir davriga xosdir Uning o‘rtacha o‘tkir bosqichida ST segmenti izoelektrik chiziqqa tushadi (ikki hafta ichida), koronar manfiy T bo‘ladi Q tishcha hosil bo‘ladi Chuqur patologik Q tishcha (QS), manfiy T bemor ilgari miokard infarktini o‘tkazilganligini ko‘rsatadi, ST segmenti izoelektrik chiziqda bo‘ladi Ko‘rsatib o‘tilgan siljishlar dinamikasi, shuningdek, EKGdagi diskordant o‘zgarishlar g‘oyat muhim Kasallikning birinchi kunlari EKGni har kuni olib o‘rganish kerak EKGdagi o‘zgarish kasalik davomida kuzatib boriladi.

Xulosa Miokard infarktining asosida toj arteriyalarining aterosklerozi, spazmi va aterosklerotik pilakchalarga qon quyilishi yotadi Kasallikning asosiy sababi 95% holatda ateroskleroz hisoblanadi Miokard infarktiga chalingan bemorlar infarkt bilan qayta kasallanishi mumkin Qayta miokard infarktiga chalingan bemorlarning ahvoli og‘ir bo‘ladi Ularda yurak-tomirlar yetishmovchiligi, yurakning maromsiz urishi kabi patologik holatlar paydo bo‘ladi

## **BIZ BILGAN O‘SIMLIKNING BIZ BILMAGAN XUSUSIYATLARI**

**Ashuraliyev Fazliddin Akbarali o‘g‘li FJSTI TPI yo‘nalishi 3-kurs talabasi  
Avaxonov Nurolloxon Jaxongirxon o‘g‘li FJSTI Pediatriya 1-kurs talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz dorivor o‘simliklar ba‘zi birlarni foydali va zararli tomonlarini yoritib o‘tganmiz Dorivor o‘simliklar bu, odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar, giyohlardir Shulardan biri anjirdir Maqolamizda anjirni foydali hamda zararli tomonlarini berib o‘tganmiz. Kalit so‘zlar: be‘mor, iste‘mol, dorivor o‘simliklar, buyrak, ko‘z, nafas, qon, suyak, biologic, gemaroy

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar juda xilma xildir Dorivor o‘simliklarda inson organizimi uchun foydali bolgan mikro, makro elementlar, turli aminokislotalar ham mavjud Hozirgi kunda turli sintetik dori vositalarida ham shunday elementlar borku, shular yordamida tezroq davolanadi deyish tabiiy holat, lekin sintetikdori vositalari organizmga foydali bo‘libgina qolmasdan zararli tomonlari ham mavjud Masalan, jigar buyrak bunday sinetik dorilardan zarar ko‘radigan asosiy organlar qatoriga kiradi Shunday ekan tabiiy dori vositalaridan foydalanish afzaldir.

Dorivor o‘simliklardan biri bo‘lgan, anjir bilan tanishamiz Anjir mevasi tarkibida 20%-24% qand, 0.5-4.2% pektin, 3-7.4% kletchatka, 0.1% organik kislotalar, karotin, kaliy, kalsiy, natriy, fosfir, temir, magniy, sink, mis, marganes va turli minerallar mavjud. Vitaminlar: A vitamini C vitamini K vitamini B vitamini

Anjir turli yurak xastaliklaridan himoya qiladi Uning mevasi tarkibida kaliy elementi bo‘lgani tufayli qon bosimini meyorlashtiradi Qonni suyiltiradi, yurak ritmini tiklaydi.



<b>KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR KALLA KO'RSATKICHI TAHLILI</b> <i>Adhamov Sh.A., Ulug'bekova G.J</i>	3
<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRUSLI GEPATITLAR TARQALGANLIGINING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI</b> <i>Chutboyev B.R., Soatova N.A.</i>	4
<b>QANDLI DIABETNING YIRINGLI-NEKROTİK ASORATLARINI DAVOLASH MUAMMOLARI</b> <i>Abdullayev S.A., Mardonov A.Sh., Murodov Z.A.</i>	5
<b>BOLALARDA UCHRAYDIGAN NAFAS YO'LLARI KASALLIKLARI.BRONXIAL ASTMA</b> <i>Abdurasulova Dilbarxon Otabek qizi</i>	6
<b>STOMATOLOG BO'LIH OSONMI?</b> <i>Abduraxmonova Muxayoxon Abduraximovna</i>	9
<b>TIBBIYOT AMALYOTIDA ISHLATILADIGAN TABBIYBIOKOMPOZITLAR</b> <i>Akbarova M.Y Mhammadjonov S.G'.</i>	10
<b>«PERIFERİK NERV SISTEMASI KASALLIKLARI»</b> <i>Alisherov Hamidullo Fayzullo o'g'li, Nurmatova Nargiza Fatxullayevna</i>	12
<b>«YURAK ISHEMIK KASALLIKLARINI KELITIRIB CHIQARUVCHI FAKTORLAR»</b> <i>Alisherov Hamidullo Fayzullo o'g'li., Nurmatova Nargiza Fatxullayevna., Alisherov Hamidullo Fayzullo o'g'li</i>	14
<b>BOLALARDAGI PNEVMONIYA: RIVOJLANISH SABABLARI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI</b> <i>Aminova M.N., Raxmatulloeva Sh.Sh.</i>	15
<b>SURUNKALI INSOMNIYANING KLINIK-PSIXOLOGIK STRUKTURASINI O'RGANIB BAHOLASH</b> <i>Amirjanova D.Z.</i>	17
<b>MIOKARD INFARKTI KASALLIGIDA EKG BELGILARINING O'ZGARISHI</b> <i>Ahrorov Abdulaziz Azizjonovich., Sobirova Dildora Ravshanovna</i>	19
<b>BIZ BILGAN O'SIMLIKNING BIZ BILMAGAN XUSUSIYATLARI</b> <i>Ashuraliyev Fazliddin Akbarali o'g'li., Avazxonov Nuroллоxon Jaxongirxon</i>	20
<b>BOSH MIYA QON AYLANISHINING BUZILISHIGA OLIB KELUVCHI XAVFLI OMILLAR.</b> <i>D.Y.Batirov, A.P.Rahimov, Tajiyev S.Z, Sobirov M.O, X.A.Madrimov</i>	23
<b>KATTA YOSHLI BEMORLARDA YURAK YETISHMOVCHILIGI</b> <i>Baxromova X.A., Islomova S.T.</i>	24
<b>BOLALARDA PNEVMONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISH XAVFI OMILLARI VA ETIOLOGIK STRUKTURASINI KECHISH XUSUSIYATLARINI KUZATISH</b> <i>Nurmatova Nargiza Fatxullayevna., Vahobjonova Guljahon</i>	26
<b>KANAKUNJUT O'SIMLIGINING (RICINUS COMMUNIS) SANOAT FARMATSIYASIDA QO'LLANILISHI</b> <i>G'aniyeva Nafisa Y., Islomova S.T.</i>	27
<b>MAXALLIY TARQALGAN ME'DA SARATONI XIRURGIKDAVO NATIJALARINI BAXOLASH</b> <i>Xasanov D.Sh Shuhratbekov J.D.</i>	28
<b>ME'DA SARATONI XIMIOTERAPIYASI NATIJALARI.</b> <i>Xasanov D.Sh Shuhratbekov Z.D.</i>	29
<b>AVITSENNA –BUYUK OLIM VA TABIB</b> <i>Daulanova Kh.I, Abiyerova S.M.</i>	30
<b>TANA VAZNINING EKSTREMAL PAST XOLATLARIDA XOMILA VA CHAQALOQLARDA O'PKANING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI</b> <i>Djumaniyazova G.M.</i>	31
<b>ODAM IMMUN TANQISLIGI VIRUSI PROFILAKTIKASI</b>	33